

**Sharipova Durdona***Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Anatatsiya:** maqolada Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olgandan so'ng tushgan asoratli ahvoli, ziyolilar qatlaming shakllanishi, dastlabki qilgan harakatlari, faoliyati davomida o'z oldilariga qo'ygan maqsad va g'oyalari, yangi usul mакtablarining joriy qilinishi, yoshlarni chet ellarga o'qishga jo'natilgani, mакtab ta'limida jadidlar qilgan ishlari bayon qilingan. Shuningdek jadid mакtablariga nega zamonaviy fanlar qo'shildi? Bu narsalar nimaga xizmat qilishi kerak edi ? kabi savollarga javob topishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** Rossiya imperiyasi, Jadid, yangi usul , maorif, matbuot, teatr, Qrim, Kavkazorti, pedagogik qarashlar, Behbudiya kutubxonasi, Tarbiyai atfol, darsliklar, kanservativizm va fanatizm

Turkiston XIX asr ikkinchi yarmiga kelganda Rossiya imperiya tomonidan bosib olindi. Shu davrdan toki 1991- yilga qadar imperiya mustamlakasi sifatida yashadi, buning oqibatida tanazzulga yuz tutishi, jahonning rivojlangan davlatlaridan ortda qolib ketishi, milliy urf- odat , qadriyatlarimiz toptalib , mahalliy aholining savodlilik darajasining pasayib ketishi, umuman ko'p sohalarda oqsoq qolishiga olib keldi. Garchi shunday vaziyatda bo'lsa ham Turkiston xalqining milliy ozodlik uchun kurashi bilan bir qatorda , asriy analalarni asrash va rivojlantirish, milliy o'zlikni saqlab qolish joizligini bir on bo'lsada unutmadir. Ayni bu davrda xalq orasidan mavjud bo'lgan ziyoli qatlam xalqni ozodlikka olib chiquvchi yo'l sifatida – xalqni ma'rifatli qilishni asosiy vazifa sifatida qoyganlar. Chunki bir tarafdan O'rta Osiyo Rossiya imperiyasiga nisbatan harbiy jihatdan kuchsiz bo'lganligi sababli ham ochiqdan ochiq kurash , harbiy harakatlarni olib boraolmadı.

Shu tariqa ziyoli qatlam xalq orasiga ilg'or g'oyalarni olib kirishda aynan maorif tizimini tanlashdillar. XIX asr 2 – yarmida Turkistonda marifatchilik harakati vujudga keldi. Umuman xalqni onggingi oshirish, jamiyatni yangilashga qaratilgan harakat jadidchilik nomi bilan tarixga kirdi. „Jadid” so'zi arabchadan olingan bo'lib yangi degan ma'noni anglatadi.

Jadidlarning xalqni taraqqiyot yo'lliga olib chiqishini quydagi yo'naliishlarga bo'lishimiz mumkin:

- a)maorif 1.Yangi usul mакtablarini ochish
- 2.Ta'lim usullarini yangilash
- b)san'at 1. Badiiy adabiyotlar
- 2. Teatr
- d) matbuot

Marifatchilik harakati nafaqat Turkiston Rossiya mustamlakasi bo'lgan Qrim , Kavkazorti va boshqalarda ham vujudga kela boshladi. Ushbu harakatning dastlabki

vakillaridan biri Qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoil G'aspirali ( 1851- 1914)edi. Gaspirali (Gasprinskiy, Gaspiralik) qrim-tatar millatiga mansub ziyoli qatlama vakili, pedagog, noshir, yirik siyosiy va jamoat arbobi . U jadidchilik va panturkizmning.asoschilaridan biri deb ham hisoblanadi.[1] Uning yangi o'qitish usullari nafaqat Qrimda,balki Tatariston, Qozog'iston, Boshqirdiston, Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkiya, Shimoliy Fors va Sharqiy Xitoyda ham muvaffaqiyatlil qo'llanildi. Milliy yangi usul maktablari uchun turkum darsliklar yozgan va nashr ettirgan. Ulardan eng mashhuri „Xo'ja va Subyon“ („Bolalar o'qituvchisi“) darsligi edi. 1887-yildan Ismoil Gaspirali Taurida ilmiy arxiv komissiyasining a'zosi edi.1905-yilda Ismoil Gaspirali va uning hamfikrlari musulmonlar liberal „Butyunrusie ittifak al muslimin“ (Umumrossiya musulmonlar ittifoqi yoki Butunrossiya matbaa ishchilari kasaba uyushmasi) tashkiloti paydo bo'ldi. Bundan tashqari, Ismoil Gaspirali „Kutubxona jamiyatlari“ni tashkil etish g'oyasini ilgari surdi[2]

Bundan tashqari G'aspiralining eng katta ishlaridan biri 1888- yil nashr qilingan Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh "asari bo'ldi. Ushbu asarda yangi usul maktablarining ta'lim tizimi,dars o'tish va uning tashkil qilinishi , ta'til, imtixon, o'quv xonalarining tashkil qilinishi kabi masalalar yoritilgan. Uning 1893- yil Toshkent, Buxoro, Samarqand shaharlariga tashrif buyurishi jadidchilikning keyingi rivojiga turtki bo'ldi.

Dastlabki yangi usul makatabi 1893- yilda Buxoroda paydo bo'ladi.Vaqt o'tib o'lkaning boshqa hududlarida ham ochila boshlaydi. 1898- yilda Qo'qonda Salohiddin domla 2 - jadid maktabini ochadi. 1899- yil Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannan qori domla jadid maktablarini tashkil etadi.Endi bu maktablar uchun qulay darsliklar ishlab chiqish, Endi bu maktablar uchun qulay darsliklar ishlab chiqish, diniy bilimlar bilan birga dunyoviy ilmlarni bish, arab , fors , rus tillarini o'rganish va tibbiyot , kimyo fanlaridan bohabar bo'linishi vazifa sifatida qo'yiladi .

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish
  - shariatni isloh qilish
  - xalqqa ma'rifat tarqatish
  - Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash
  - Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament
  - keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish
  - barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.<sup>3</sup>( O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
- Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ustuvor vazifa bo'lgan yangi usul maktablari soni tobora ko'payib bordi. XIX asr oxirida O'rta Osiyoda jadid maktablari tashkil qilina boshlangan bo'lsa.1911- yilga kelib 63 ta o'quvchilar 4106 nafarni tashkil etgan. 1917- yil o'lkada 100ga yaqin yangi usul maktablari mavjud edi.[3] ;

Shu tarzda yangi usul tarmog'lari ko'payib boravergan. Bu maktablarda bolalar nafaqat tez savodli bo'lgan, Konservativizm (konservativizm — ijtimoiy va madaniy hayotda an'ana va vorislik g'oyasiga tayanuvchi xilma-xil g'oyaviy siyosiy va madaniy oqimlar majmui.) fanatizm( O'z dini va e'tiqodiga ortiq darajada yopishib olib, boshqa har qanday qarashlarni rad etish, fanatiklarcha fikr yuritish va harakat qilish; o'taketgan mutaassiblik, johillik.) kabi g'oyalardan holi dunyoqarash shakllanishiga ham olib kelgan.

Maktablarda nafaqat Sharq balki G'arb mamlakatlari yutuqlaridan tajriba asosida o'zlashtirishni davat etdilar. Yevropa standartlaridan namuna olgan holda ta'limni tashkil etish kerakligini yaxshi anglab yetgandilar. Chunki marifatparvarlar xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi ta'lim va madaniyat darajasini ko'ra olgan edilar. Tarix, geometriya, arifmerika kabi fanlarni islam dini ta'limoti bilan o'rghanishga e'tibor berdilar. Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Xiva, Samarqand kabi sharlar jadidchilik markazlariga aylandi. Bu yerlarda nafaqat yangi usul maktablari balki turli madaniy-ma'rifiy uyushmalar ham tashkil qilingan edi. Jadidlar shu o'rinda xotin -qizlarning o'qishi masalasiga ham e'tibor qaratdi. Islom dinida ma'rifatli bo'lishni istagan ayolga qarshilik qilinmasligini aytilib o'tilgan. Ilm olish erkak va ayol uchun ham farz ekanligi aytilib o'tildi. Va ular og'il va qiz bolalarning birga o'qitilishi tashabbuskori edilar. Ularning dastlabki pedagogik qarashlari shu tartibda ya'ni xalqni ma'rifatli, ilmli, jahon standarlaridan xabardor qilib tarbiyalashdan boshlab, shu asnoda milliy - ozodlik kurashi vakillarni ham yetishtirish vazifasi qo'yilgan edi. XIX asr oxirlari XX asr boshlaridagi jadidchilikning ko'zga ko'ringing vakillari sifatida: Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy Ajziy, Ubaydulla Xo'ja Asadullaxo'jayev, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat kabilarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu insonlar jadidchilikni har tomonlama rivojlantirishga harakat qildilar.

Behbudiyning yurt obodligi yo'lida boshlagan ijobiy ishlaridan biri „Behbudiya“ kutubxonasining tashkil etilishi bo'ldi. Behbudiy birinchilardan bo'lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo'nga qo'ygan. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona „Yangi rasta“da ochilgan. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda „Turkiston viloyatining gazeti“da xabar berilgan edi. 27 bobdan iborat bo'lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergen. Kutubxonaga yillik a'zolik badali 3 so'mni tashkil etgan. „)

Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug'ullanishga undash bo'lgan. Munavvarqori ibn Abdurashidxon ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullangan. Uning ixcham hikoyalari, talaygina she'rlari o'sha davrdagi matbuot va o'zi tuzgan hamda yozgan darsliklarga kiritilgan. Shuningdek, u o'tkir publisist adib sifatida tanilgan. Misralarida inson va jamiyat, din va dindorlik, axloq, mustamlakachilik va hurriyat, ziyolilik, uyushma, tashkilot, davlat idorasini masalalariga alohida e'tibor qaratgan.[4]

Uning yozgan darsliklari sifatida : „Adibi avval”, „Adibi Soniy”, „Yer yuzi” kabilarni misol qilsak bo’ladi.

Jadid maktablarini yaxshi yo’lga qo’yib olganlaridan so’ng endi Turkiston yoshlarini chet elga o’qishga yuborish ishlari ham yo’lga qo’yila boshlandi. Bu ishlarga o’z davrining puldor kishilari ham yordam. Xususan 1910- yilda Buxorada „ Tarbiyai atfol” jamiyatni tashkil qilinib, bu tashkilot 1911- yilda 15 , 1912-yilda 30 nafar o’quvchini Turkiyaga o’qishga yubordi. 1922–23 o’quv yili turkistonlik yoshlar uchun juda muvaffaqiyatli boshlandi. Darhaqiqat, yuzlab yoshlar Moskva va Peterburgning turli nufuzli ilm dar- gohlariga talaba sifatida qabul qilindilar. Ammo, ularning na yotoqxonasi va na bu sarflar uchun puli, hatto qishgi kiyimi ham yo’q edi.

Darhaqiqat, talabalarni sovetlar mamlakatining poytaxtida joylashtirish masalasi oson kechmadi. Botu, Shokir Sulaymonlar Turkiston va Buxoro hukumatlari ko’magi asosida bu masalani jiddiy qiyinchiliklar bilan hal etdilar

Xulosa: Qanday qiyinchilik bo’lmashin har davrda yurt tarixidan mustaqillik uchun kurashuvchi shaxslar chiqqan. Ushbu davrnning qahramon liderlari sifatida tarif bersak bo’ladigan qatlam : jadidlar ya’ni ma’rifatparvar timsolida yetishib chiqdi. Faqat ularni ayrimlardan farqi qurolli qo’zg’alon yoki urushni emas balki qurol sifatida maorifni tanlashi bo’ldi. Ular tushunib yetgandilarki xalqni onngini oshirish orqali , ma’rifatli qilish bilan mustaqillik olib chiqishini. Bu usulda jadid maktablarining pedagogik g’oyalalariga kamdan – kam bo’Lagan holda singdirildi. Ushbu fikrlarimning so’nggini Prezidentimiz Shavkat Miravonovich Mirziyoyevning ushbu so’zlari bilan yakunlamoqchiman: „Jadidlar tomonidan tashkil etilgangan yangi usuldagagi maktablar , teatr , kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar , Turkiston farzandlarini chet elga o’qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g’aflat uyqusidan uyg’otdi, milliy ozodlik harakati uchunkuch berdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:**

1. Sventochovskiy, Tadeush. Historical dictionary of Azerbaijan (USA), Scarecrow Press, 1999 — 145 bet
2. ЗАЙНОБИДИН АБДИРАШИДОВ. ИСМОИЛ ГАСПРИНСКИЙ ВА ТУРКИСТОНДА ЖАДИДЧИЛИК. Тошкент – 2008
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999
4. Sirojiddin Ahmad. Munavarqori. Esse. „Sharq yulduzi“ jurnalı, 1992, 5-son.